

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Jismoniy tarbiya fakul`teti

"Sport" kafedrası

Mamedova Nafisa

Jismoniy madaniyat yo`nalishi.

**Mavzu: "O`zbek buyuk mutafakkirlari yoshlarni jismoniy
chiniqtirish to`g`risida"**

**5141900 - Jismoniy madaniyat ixtisosligi bakalavr ilmiy
darajasini olish uchun yozilgan**

BITIRUV - MALAKAVIY ISH

(2012-2013 o`quv yili)

Ilmiy rahbar:

o`qituvchi Ya.Z.Fayziev

Rasmiy opponent:

o`qituvchi A.E.Sattorov

BUXORO – 2013 y

MUNDARIJA

KIRISH

I. BOB JISMONIY TARBIYA VOSITASIDA MA'NAVIY BARKAMOL INSONNI TARBIYALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI_____

I.1. Ajdodlarimiz merosida ma'naviy barkamollik to'g'risidagi g'oya va qarashlarning mohiyati_____

I.2. Har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirish yo'nalishida jismoniy tarbiya va sportning tutgan o'rni, mazmuni_____

II. BOB JISMONIY MADANIYAT VA MA'NAVIY KAMOLOT

II.1. Milliy qadriyatlar va an'analarning yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tutgan o'rni va ahamiyati_____

II.2. Milliy xalq o'yinlari orqali barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazishning mazmun, shakl va metodlari_____

Xulosalar_____

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati_____

KIRISH

Muammoning dolzarbligi.

Mustaqilligimiz tufayli ko'p asrlik milliy qadriyatlarimizni o'rganish va ulardagi sara fikrlarni yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi yo'nalishiga singdirish imkoniyati tug'ildi.

Yosh avlodni barkamol inson, yuksak axloq sohibi etib tarbiyalashda milliy-ma'naviy qadriyatlarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. "Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan yodgorliklarning o'rni beqiyosdir".

Mustaqil O'zbekistonda yuz berayotgan tub islohotlar jamiyatimizning faqat hozirgi kunini emas, balki uning kelajagini, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdek ezgu g'oyani amalga oshirishga qaratilgandir. Ana shu ezgu g'oyani amalga oshirish uchun avvalo salohiyatli, ijodkor, jamiyat oldida o'z mas'uliyatini his eta oladigan, istiqlol g'oyalariga sadoqatli shaxsni shakllantirishni taqozo etadi. Bu muhim vazifani O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov ham alohida ta'kidlaydi: "Har qanday inson, tabiiyki, murod-maqsadsiz yashay olmaydi. Binobarin, toki hayot mavjud ekan, mamlakatlar, davlatlar va ularning manfaatlari bor ekan, ular o'z taraqqiyot yo'lini, ertangi kun ufqlarini o'zining milliy g'oyasi, milliy mafkurasi orqali belgilab olishga intiladi».

Shuning uchun ham I.A.Karimov o'zining «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tashabbus guruhi bilan uchrashuvda so'zlagan nutqida: «Ayniqsa, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi biz uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifa bo'lib, bu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarimizni izchil va qatiyatlik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turganini yana bir bor uqtirib o'tmoqchiman,» - deb ko'rsatib o'tadi.

Shunday ekan, mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasi bilan bevosita shug'ullanish - milliy kadrlarni tayyorlash masalasi hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash jarayoni bilan bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham yosh avlodni jismonan sog'lom etib tarbiyalash, chuqur va mustahkam bilim berishda milliy an'analardan foydalanishga katta ehtibor qaratilgan. Ayniqsa, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda ta'lim mazmunini milliy an'analar bilan boyitish muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki milliy an'analar, urf-odatlar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ular negizida yoshlarni jasurlik, zukkolik, chaqqonlik, mehnatsevarlik o'zaro hurmat, mehr-muruvvat va boshqa xislatlar ruhida tarbiyalab, xalqimizning kuch-qudratini jahonga ko'rsatish va undan faxrlanish, tinchlik-barqarorlik, ona-Vatanga sadoqat, o'z kasbini e'zozlash kabi tuyg'ular bilan uyg'unlashib ketadi. Shuningdek, hozirgi davrda turli xil milliy sport an'analari-milliy bayramlar, marosimlarimiz kirib kelmoqda va sog'lom avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunga ko'ra Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bilan birga mutaxassis kadrlarni tayyorlashda jismoniy ta'lim jarayonini rivojlantirishga ham katta e'tibor berilmoqda. Bu borada "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida (1992, 14 yanvar, 2000-yangi tahriri)"gi Qonun hamda Respublika Prezidentining "Sog'lom avlod uchun" (1993, 4 mart) Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 3 dekabrda "Yosh avlodni sog'lomlashtirish muammolarini har tomonlama rivojlantirish to'g'risida"gi "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (1999, 27 may), «O'zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining faoliyatini tashkil etish to'g'risida» (2002, 30 oktyabr) hamda «Ommaviy sport tadbirlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (2003, 4-noyabr) qarorlari va xalq ta'limi tizimida jismoniy ta'lim samaradorligini oshirish muammosini hal etishda alohida o'ringa ega bo'ldi. Bular o'z navbatida, oliy ta'lim tizimida ham jismoniy ta'limga oid barcha ishlarni rivojlantirish, hozirgi zamon talablari asosida milliy an'analarni hayotga keng yoyishni taqozo etdi.

Darhaqiqat, insonning asl fazilati-ma'naviyatdir. Inson ma'naviyatsiz yashay olmaydi. Ma'naviyat insonning hayot tajribasi mehnati bilimi, axloqi va

odobi avlodlar tajribasi asosida shakllanib boradi, insonning hayoti va faoliyatiga maqsad hamda ish beradi. Shuning uchun ham ma'naviyat insonga suv va havodek zarur. Yurtboshimiz tahkidlab o'tganlaridek: "Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi".

Ma'naviyat insoniy fazilat sifatida odamlarni odob axloq normalari asosida, huquqiy asosda yashash va faoliyat ko'rsatishga insonparvarlik, halollik, baynalminallik g'oyalariga qat'iy sodiq bo'lishga yo'naltiradi. Ma'naviyat insonga muayyan maqsad, kelajakka ishonch bilan borish uchun katta umid, kuch va qudrat baxsh etadi, insonning o'zligini anglab olishda unga yordam beradi. Ma'naviyat inson hayotini go'zallashtiradi turmushga mazmun va mohiyat bag'ishlaydi. Shu bois ham milliy istiqlol g'oyasi negizida ma'naviy yetuk, komil insonni tarbiyalash hozirgi vaqtda jamiyatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki ma'naviy barkamol inson, eng avvalo, zamonaviy bilimlarga asoslangan dunyoqarashning sohibi bo'lmog'i kerak.

Respublikamiz yoshlarining milliy mafkurasi shakllanayotgan bir paytda ular umuminsoniy qadriyatlar, zamonaviy fan va texnika yetuklari bilan bir qatorda insoniy fazilat bo'lgan ma'naviy odob-axloq va an'alarimizdagi eng oliyjanob hislatlarni mujassamlashtirgan, yuksak ma'naviyatli ma'rifatli, insonparvar o'z Vataniga fidoiy, yetuk mutaxassis bo'lishlari kerak. Ta'lim - tarbiya ishlari o'quv jarayoni ana shu maqsadlarga qaratilmog'i lozim. Yoshlarni tarbiyalashdagi mukammal qirralarni anglab olish, ularni madaniy ma'naviy yetuk, ma'rifatli inson, yangicha fikrlash madaniyatini mukammal egallab olgan yuqori darajali mutaxassis qilib yetishtirish ustida qator ishlarni amalga oshirish lozim. Yoshlarimiz qiyofasi, dunyoqarashi, madaniyati, insoniy fazilati, qobiliyati nimalardan iborat bo'lishini yaxshi anglab, ana shu fazilatlarini shakllantirish ustida milliy qadriyatlar, ma'naviy-ma'rifiy boylik, an'analardan foydalangan holda tinmay amaliy ish olib borish jamiyatimizning, birinchi navbatda tarbiyachilar, muallimlar, professor-o'qituvchilar, olimlar barcha ziyolilar oldida turgan dolzarb masala deb tan olishimiz lozim.

An'analar - o'tmishdan kelajakka meros qoladigan, avloddan-avlodga o'tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy qadriyat, milliy madaniyat, maishiy ijtimoiy-siyosiy, diniy urf-odatlar, axloq me'yorlari va qarashlari tizimi, an'analar yoshlarni tarbiyalash ularni keksa avlod tajribalariga o'rgatish vositasi hamdir.

Haqiqatdan ham buyuk tarixiy-ma'naviy ildizlarga ega bo'lgan davlatchiligimiz an'analarini davom ettirish, demokratik tamoyillarga asoslangan davlatni barpo etish jarayoni, jumladan jamiyat ahzolari hisoblanmish yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol inson bo'lib yetishishlarida ajdodlar an'anasi va o'tmish qadriyatlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda mustaqil mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy-ma'naviy yuksalishi yo'lida xizmat qiladigan, ozod va obod, farovon hayot, jamiyatning poydevorini yaratadigan, har tomonlama yetuk, sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash hamda voyaga yetkazish ta'lim sohasidagi islohotlarning asosini tashkil etadi. Bu islohotlar esa uzluksiz ta'lim tizimida olib boriladi. Shu nuqtai nazardan jismoniy tarbiya vositasida yoshlarni ma'nan yetuk etib tarbiyalash, jismoniy madaniyat va sport orqali barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazishning mazmun, shakl va metodlarini o'rganish hamda ulardan zamonaviy ta'lim jarayoni va pedagogika fanlari tizimida foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu esa, ayni vaqtda ishimizning dolzarbligi belgilaydi.

I-BOB JISMONIY TARBIYA VOSITASIDA MA'NAVIY BARKAMOL INSONNI TARBIYALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

I.1. Ajdodlarimiz merosida ma'naviy barkamollik to'g'risidagi g'oya va qarashlarning mohiyati.

Ma'naviyat-inson axloq odobi, vijdoni-iymoni, ehtiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy o'zgarishlarining bari, bir-biri bilan uzviy bog'langan jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimdir.

Bizning nazarimizda, shaxs ma'naviyati - uning ongida kechadigan ijobiy mazmunga ega o'y-fikrlar, niyatlar, g'oyalar, nazariya va ta'limotlar mazmunining amaliy faoliyatdagi tatbiqida namoyon bo'luvchi ruhiy jarayondir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, shaxs ma'naviyati asosida ijobiy mazmunga ega bo'lgan o'y-fikrlar, niyatlar, g'oyalar, nazariya va ta'limotlar mazmuniga yetishishni e'tiborga olish lozim. Chunki, shaxs ongida hamisha ham ijobiy mazmunga ega fikrlar kechmaydi. Salbiy fikrlarga ega bo'lish esa ma'naviyatsiz, axloqsiz inson qiyofasini ko'rsatuvchi muhim belgidir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi eng muhim omil sanaladi. Ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs ma'naviy axloqiy kamolotini shakllantirish asosi hisoblanadi. Ma'naviy axloqiy ta'lim o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-axloqiy munosabatlar mohiyati to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda ma'naviy-axloqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirish jarayoni bo'lib, u izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy ma'naviy-axloqiy bilimlar negizida ijtimoiy faoliyatni tashkil etish borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ijobiy mazmundagi ma'naviy-axloqiy sifatlarni qaror toptirish va ma'naviy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan murakkab dinamik jarayon hisoblanadi.

O'quvchi xulqi, xatti-harakatlarida ma'naviy madaniyatlikning asosiy mezonlari: insonparvarlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, mehr-muruvvat, iymon, ijodkorlik, faollik, tashabbuskorlik, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini baholashni talab etadi. Bu talab o'quvchining vatan, ota-ona, do'stlari, jamoa oldidagi burchiga, vazifalariga, ta'lim-tarbiya jarayonida namoyon bo'ladigan faollik, ijodkorlik xususiyatlariga munosabati orqali amalga oshiriladi.

Buning uchun eng avvalo, inson fazilatlarining o'zaro munosabatlarini va o'rmini aniqlab olmog'i lozim. Insonning ma'naviyati uning odobi, xulqi, madaniyatida tashkil topadi.

O'zlarining aql-idroklari, tafakkur quvvati, zehn-zakovati, buyuk kashfiyotlari, ilm-fani bilan dunyoni hozirgacha ham lol qoldirib kelayotgan buyuk mutafakkirlari, fuzaloyu ulamolari benihoya ko'pligi bilan o'zbek xalqi har qancha faxrlansa, iftixor qilsa, boshini baland ko'tarib g'ururlanib yursa arziydi!! O'zbeklar nasl-nasabi, o'tmishi nihoyatda ulug' va baquvvat, ildizi juda chuqur, qadimiy xalqlardan biridir. Biz tarix maydonida kuni kecha paydo bo'lgan xalq emasmiz.

Ilm-fanga o'chlik, ma'rifatga tomon talpinish, madaniyatga tashnalik, odob-axloq qoidalarini chuqur o'zlashtirib hayotga tatbiq etishga intilish, kitob mutolaasini hech qachon kanda qilmaslik, zehni o'tkirlab, fikrini boyitib, tafakkur quvvatini oshirishga doimo shay turish-bularning hammasi o'zbek xalqiga avlod-ajdodlaridan o'tib kelayotgan buyuk an'ana, ajoyib meros bo'lib, bular uning qon-qoniga chuqur singib ketgan.

Eramizdan oldin taxminan 484(480)-431(425) yillarda yashagan yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix" kitobida qadimgi forslar, saklar, massagetlarning ta'lim-tarbiya tarziga oid muhim ma'lumotlar berilgan. "Forslarning eng sharaflaydigan narsasi jasurlikdir", - deydi olim. Shunga ko'ra ular ko'proq o'g'il bolalardan faxrlanganlar. Podshoh ham kimning o'g'li ko'p bo'lsa, unga har yili sovg'a-salomlar yuborgan. Bundan tashqari bolalarning yoshiga ham e'tibor berishgan. O'g'il bolalarni besh yoshdan yigirma yoshigacha faqat uch narsaga: otda yurish, kamondan otish, to'g'ri so'zlikka o'rgatilgan. Bolani besh yoshgacha

otasiga ko'rsatmaganlar, u ayollar tarbiyasida bo'lgan. Mabodo o'g'il bola vafot etsa, otasining qayg'urmasligi uchun shunday qilganlar.

O'g'illar hech qachon ota-onasiga nisbatan hurmatsizlik qilmaganlar. Ular bunday holatni faqat nikohsiz tug'ilgan yoki tashlandiq bolalardangina kutish mumkin, deb hisoblaganlar.

Bundan tashqari, Gerodot forslar uchun yolg'onchilik va qarzdor bo'lish sharmandalik hisoblangan, deydi. Ular daryolarni muqaddas sanaganlar. Shu bois daryo suviga tupurmaganlar, hatto qo'l yuvmaganlar

XII asrning iste'dodli shoiri va donishmand murabbiysi Ahmad Yugnakiyning "Hibbatul haqoyiq" ("Haqiqatlar armug'oni") asarida ilmi bilan ilmsizni, olim bilan johilni qiyoslab bayon etgan quyidagi fikri bunga misol bo'ladi: **"Bilim to'g'risida so'zlamodaman, so'zimni yaxshi tingla, bilimdon kishilarga o'zingni bog'la. Bilim bilan baxt-saodat yo'llari o'rganiladi, bilim egallab, saodat yo'lini top. Bilimli kishi qimmatli oltindir. Johil, bilimsiz kishilar qimmatsiz oltindir. Johil, bilimsiz kishilar arzimas aqcha kabi"dir. Bilimli bilan bilimsiz qachon teng bo'ladi? Bilimli ayol er(mard)dir, bilimsiz er ayol (zaif)dir. Suyakka ilik, er kishiga ilm kerak. Erning ko'rki aql, suyakning ko'rki ilikdir. Bilimsiz iliksiz suyakdek bo'sh-quruqdir, iliksiz suyakka esa qo'l uzatmaydilar. Er kishi bilim o'rganib, bilguvchi bo'lib qoladi, bilimsiz tiriklikda ko'rguliklar ichida qoladi. Bilimli er o'lsa ham o'likdir"**. Ahmad Yugnakiyning bu mulohazalari, hozirgi davrimiz uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Ilmu ma'rifatning insonning qadr-qimmati va izzat-e'tiborini oshirishdagi ahamiyati Kaykovusning "Qobusnoma"sida, Yusuf Xos Xojibning "Kutadg'u bilig" ("Baxt keltiruvchi bilimlar") nomli asarlarida ham o'zining chuqur ifodasini topganligini qayd qilib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Insonni kamtar, sermulozamat, vazmin, og'ir-bosiq qilib ko'rsatadigan fazilat va xislatlar kishining bilimidan kelib chiqadi. Buni bizning ajdodlarimiz orasida o'tgan ulug' va dono kishilar, shoir va faylasuflar ham ko'p ta'kidlab o'tganlar.

Ana shu yerda ulug' bobomiz Alisher Navoyining "Mahbubul-qulub" asaridagi kamtarlik-tavoze' haqidagi fikrlarini keltirib o'tish joizdir: **"Tavoze'-do'stlik gulshanida toza gullar ochadi va chamandan oshnolik va ulfatchilik bazmiga xilma-xil gullar sochadi. Tavoze'-takabbur muxolifga muloyimlik va kamchilik yo'lini ko'rsatadi.**

Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U mansabdor kishilardan go'zalroq va badavlat odamlardan hurmatliroqdir. Odobli odam o'z tengdoshlari orasida ham tahsinga loyiq. Hech qanday ehson bermay kattadan-kichik, hammani shod qiladi. Hech qanday hadya qilmay, kishilarning g'amini tarqatadi... Tavoze' va odob egallariga hamma ta'zim qiladi va hurmat bildiradi".

"Makorimul-axloq" kitobining muallifi tarixchi Xonadamir "Boshingga takabburlik havosini keltirma. Chunki takabburlik bilan hech kim biror joyga yetgan emas. Go'zallar zulfi kabi shikastlikni odat qil, bu bilan har nafasda minglab ko'ngilni ovlaysan ,-deydi.

Ajdodlarimizning ma'naviy-axloqiy, jismoniy barkamollik tarbiyasiga bag'ishlangan asarlaridan biri Unsurul-maoniy Kaykovusning o'z o'g'li Gilonshohga atab yozilgan "Qobusnoma" asaridir.

«Qobusnoma» Sharqda, xususan Eronning o'zida ham saqlanib kelayotgan an'anaga ko'ra pand-nasihat tarzida yozilgan bo'lib, mana bir necha asrlardan beri xalqlarni, jumladan yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda, ularni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda muhim qo'llanma bo'lib kelmoqda.

Kaykovus «Qobusnoma» asarida jismoniy tarbiyaga alohida ahamiyat bergan. Zero, Kaykovus asarini javonmardlar tarbiyasiga bag'ishlar ekan, ularning eng avvalo jismonan sog'lom bo'lib kamolga yetishini alohida ta'kidlaydi.

Buni biz asardagi «Shikorga chiqmoq zikrida», «Urush qilmoq zikrida», «Chavgon o'ynamoq zikrida», Sipohsolarlik shartlari va odatlari zikrida» va boshqa boblarda ko'ramiz.

Bu boblarda javonmardlar egallashi zarur bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya berish nazarda tutilgan:

1. Bilim olishning zaruriyati;
2. Hunar va turli kasb egalari zikri;
3. Turmush va xulq-odob qoidalari ;
4. Jismoniy yetuklik va ma'naviy barkamollik .

Chunki har bir juvonmard uchun tan, jon, havas va maoniy, ya'ni ham sipohiylik, ham ma'rifat, ham donishmandlikka ega bo'lish zarur bo'lib, bu xislatlar ana shu yuqoridagi to'rt yo'nalishda zikr etilgan.

Kaykovus ilmni uchga bo'ladi:

- biror kasb-hunarga bog'liq bo'lgan ilm;
- ilm bilan bog'liq kasb-hunar hamda xayr va dalolatga taalluqli odat;
- ilm egallash jarayonida jismoniy barkamollik.

Kaykovusning «Qobusnoma» asarida yoshlar tarbiyasida-javonmardlik talablaridan eng muhimi-axloq tarbiyasi deb ko'rsatiladi. U yoshlarda insonga nisbatan insoniy munosabatda bo'lish, adolatlilik, samimiylik, saxiylik kabi xislatlarni tarkib toptirishni istaydi va asarning boshidan oxirigacha ana shu ezgu maqsadni amalga oshirishga harakat qiladi. Ko'rinib turibdiki, Kaykovus qarashlarida inson tarbiyasidagi jismoniy yetuklik va barkamollik omili muhim o'rin tutadi.

Demak, Kaykovusning «Qobusnoma» asari XI asrda yuzaga kelgan yirik tarbiyaviy asardir. Bunda o'sha davrga xos har bir yosh egallashi zarur bo'lgan aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan bog'liq faoliyat turlari: otda yurish, merganlik, suvda suzish, harbiy mashqlar san'ati, ifodali o'qish, xattotlik san'ati, shehr yoza olish, musiqiy bilimga ega bo'lish, shatranj va nard o'yinini bilish kabilar ham o'z ifodasini topgan.

Kaykovusning katta xizmati shundaki, u yoshlarni hayotga tayyorlashda ularni har tomonlama kamolga yetkazishning nazariy masalalarini amaliy faoliyatga tatbiqu nuqtai nazaridan ifodalashi bilan hamma zamonlarda, har qanday tuzumda ham o'z qimmatini yo'qotmadi va amaliy hayot dasturi sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi.

I.2. Har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirish yo'nalishida jismoniy tarbiya va sportning tutgan o'rni, mazmuni.

Mustaqillika erishilgach, mamlakatimizda bevosita Prezidentimiz rahbarligida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga katta e'tibor karatildi. Vazirlar Maxkamasining "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

Bundan ko'zlangan maqsad, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb xunar ta'limi hamda Oliy ta'lim tizimida bilim olayotgan yoshlarni ommaviy sport musobaqalariga muntazam jalb etish, shu sohada sog'lom va har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat.

Milliy istiqlol g'oyasi negizida ma'naviy yetuk, komil inson, ya'ni jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash jamiyatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoldi. Chunki ma'naviy kamolot dolzarb mazmun-mohiyati jihatidan ko'p qirrali tushuncha hisoblanadi va o'z ichiga juda ko'p sohalarni, jumladan jismoniy madaniyatni qamrab oladi.(38,40)

Yurtboshimiz sport mamlakatni tez mashxur qiladigan vosita ekanligini ta'kidlab, xozirgi kunda jismoniy madaniyat ravnaqiga juda katta e'tibor bilan qarayotganliklari bois sportning barcha turlari Respublikamizda bekiyos darajada rivojlanmokda.

Sportning ravnaqi ayniksa o'zbek kurashining dunyoga keng yoyilishi sport sohasidagi yoshlarning ma'naviy kamolotini ifodasidir.

Darhaqiqat yoshlarimiz ma'naviy kamolotini yanada yuksaltirishda, jismoniy madaniyat va sport turlari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda yuksak siyosiy ong, siyosiy bilim va madaniyat, siyosiy ziyraklik, xalollik, poklik fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirishni taqazo etadi. Ma'nan va jismoniy baquvvat bo'lmasdan turib, shaxs barkamol bo'lolmaydi. Ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodgina o'z Vataniga fidoyi, Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek "Elim deb, yurtim deb, yonib yashashi mumkin".

"Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun-bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak - sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar.

Kishi qalbida - haromdan hazar, poklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lish kerak" -deydi yurtboshimiz I.A.Karimov.

Yoshlarni sportga qiziqtirib, ularni turli jismoniy mashqlarga, sport o'yinlarga jalb qilish, sport musobaqalariga tayyorlash, ya'ni ularda jismoniy tarbiyaga moyillikni kuchaytirishning, jismoniy qobiliyatni rivojlantirish va taraqqiy ettirishning vositalari xilma-xildir. Shuning uchun milliy sport turlarini keng targ'ib qilish va muntazam mashklar tashkil qilish, ularni mohir ustoz-murabbiylar bilan ta'minlash, nazorat qilish bilan qatorda ma'naviy va moddiy rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi- tanadagi barcha a'zolari sog'lom o'sishini ta'minlash barobarida ularni aqliy va jismoniy mehnatga, shuningdek, Vatan mudofasiga tayyorlashdir. Bu g'oya azal-azaldan ota-bobolarimiz ma'naviyatida o'z aksini topib kelmoqda.

Abu Ali Ibn Sino inson fazilatlaridan quyidagilarni ko'rsatgan: jasurlik-biror ishni bajarishda kishining jasurligi, chidamliligi, inson boshiga tushgan yomonlikni to'xtatib turuvchi quvvat. Ziyraklik-sezgi bergan narsalarning haqiqiy manosini tezlik bilan tushunishga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya kishilarga katta ta'sir ko'rsatib, salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko'rishga yordam beradi. Sport-har qanday yoshda ham qaddi-qomatni tarbiya qilish, kuch-quvvatni saqlab turishning ajoyib vositasidir. Sport dam olish bilan mehnatni almashtirib turish manbai bo'lib xizmat qiladi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy barkamolligini ta'minlash ota-ona, maktabning ishi bo'lib qolmasdan, balki davlat ahamiyatiga ham molik ishdir.

Jismoniy tarbiyaga bo'lgan e'tibor, g'amxo'rlikni kun sayin oshib borishi davlatimizda sportga davlat ahamiyatiga molik ish sifatida qaralayotganini yorqin misolidir.

Bu davrda yoshlarni sportning u yoki bu turi bilan shug'ullantirishning moxiyati shundaki, agar o'smir yoki yosh sport bilan shug'ullanish davrini yaxshi o'tkazar ekan, unda yuksak jismoniy qobiliyat iroda va xarakter tarbiyalanadi,

shuningdek dunyoqarash shakllanadi. Aksincha bola o'sishning bu muhim davrida jismoniy harakatli o'yinlaridan maxrum bo'lar ekan yoki sport bilan shug'ullanmas ekan, xayot jarayonida u har tomonlama yetuk odam bo'lolmaydi. Demak, o'sish jarayoni muayyan davrida sport bilan shug'ullanish o'smirda kelgusi hayot uchun eng muhim bo'lgan jismoniy to'liq: chaqqonlik, epchillik, botirlik, jismoniy go'zallik va boshqa muhim sifatlarni tarbiyalaydi. Sportchi sportning u yoki bu turi bilan shug'ullanar ekan, u doimo yuqori natijalariga erishishini maqsad qilib qo'yadi.

Bu esa sportchidan:

1. Uzoq vaqt davomida trenirovka qilish natijasida umumiy jismoniy taraqqiyotni, organizmning fiziologik funksiyalarni yuksak darajada rivojlanganligini talab qiladi. Sport faoliyati doimiy ravishda har bir harakatga ijobiy qarashni talab qiladi. Bu hol ayniqsa badiiy gimnastika, boks, qilichbozlik, futbol, kurash, yengil atletika va boshqa sport turi bilan shug'ullanuvchilarda yaqqol ko'rinadi.

2. Bu esa sportchida tafakkurning yuritish operatsiyasining yuksak o'sishini talab qiladi. Chunki sportda darhol yechilishni talab qiladigan usulga, taktikaga oid masalalar tez-tez uchrab turadi. Bu zaruriyat sportda tafakkur qilish qobiliyatini o'stiradi. Bundan tashqari sportda emotsiya, idrok va boshqa psixik jarayonlar ham kamol topadi.

3. Sport shaxs temperamenti va xarakterini tarbiyalashda ham zo'r kuchga ega. Ilmiy tekshirishlar shuni qo'rsatadiki, ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan trener va sportchilarni tekshirilganda ular orasida bo'sh asab tizimiga ega bo'lganlari kam uchraydi. Vaholanki sport bilan shug'ullanmagan kishilar o'rtasida bo'sh asab tizimli kishilar tez-tez uchrab turadi.

Flegmatik - temperamentli kishi yaqin distantsiyaga tez yugura olmaydi, boksda esa tez harakat qila olmaydi, ammo asab tizimi trenirovka qilish natijasida bunday tipni o'zgarishi sportning ayrim turlarini egallay olganligi isbotlangan.

Xolerik - temperamentli kishilar yaqin distantsiyaga yugurishga, boksga juda mos keladilar, lekin musobaqa paytida oshiqcha xayajonlanadilar, uchragan to'siqlarni yengishda achchiqlanadilar.

Sport maqsadga intilish, intizomlilik o'z kuchiga ishonch, tashabbuskorlik, mustaqillik, mardlik, qat'iyat, dadillik, o'zini tuta bilish, chidamlik kabi irodaviy sifatlarni shakllantirishiga ta'sir ko'rsatadi. Sportchida bunday ijobiy sifatlar rejali va tizimli trenirovkaning, trener mehnatining oqibatidir.

Sport jarayonida aytilgan vositalar bir butunligida sportchining yuqori darajadagi irodaviy g'oyaviy sifatini tarbiyalashga erishish mumkin. Sportchining bu sifatlari qandaydir abstrakt bo'lmay balki, konkret sport faoliyati sharoiti bilan bog'liqdir. Chunki o'zidan ravshanki, sportning har qanday turi bo'yicha psixologik sifatlarni talab qiladi. Sport psixologiyasi bo'yicha ilmiy tekshirishlar shuni tasdiqlaydiki irodaviy sifatlar sportning turi va yengishga tegishli bo'lgan qarshiliklar darajasiga qarab turlicha bo'ladi.

Misol: Shtanga bilan shug'ullanish mushaklarni maksimal darajada taranglashtirish va diqqatni to'plashni talab etsa, chang'i sporti esa barqaror irodani talab qiladi. Bu misoldan ma'lumki sportning u yoki bu turini egallash va sportchi o'z nomini saqlab turish uchun sportchi tizimli mashq bilan shug'ullanadi. Bu mashq jarayonida u har qanday jismoniy va ruxiy to'siqlarga duch keladi. Ana shu to'siqlarni yengib o'tish uni irodaviy g'oyaviy sifatlarini tarbiyalaydi.

Borgan sari takomillashish natijasida sportchida kuchli iroda ham o'sib boradi.

Sportchida irodaviy g'oyaviy sifatlarning yaqqol ko'rinadigan sharoit-sport musobaqasidir.

Chunki musobaqada sportchining barcha qobiliyati va sifatlari namoyon bo'ladi. Bu esa sportchini irodaviy g'oyaviy jihatdan tarbiyalash uchun butun bir real imkonidir. Shu asosida trener hamda sportsmen shaxsan o'zi irodasidagi yetishmovchiliklarni tuzatish choralarini belgilay oladi.

Sportchining irodaviy-g'oyaviy yetukligi qator musobaqalarda qo'lga kiritgan yutuqlari bilan xarakterlanadi.

II-BOB JISMONIY MADANIYAT VA MA'NAVIY KAMOLOT

II.1. Milliy qadriyatlar va an'analarining yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tutgan o'rni va ahamiyati.

O'zbekistonda mustakillik tantanasi tufayli ta'lim tarbiya tizimida tub uzgarishlar vujudga keldi. Milliy kadryatlarni tiklash, milliy ma'naviyatni yuksaltirish, ayniksa sharkona odob-axlok an'analariga ehtiboni kuchaytirish shular jamlasidandir. Eng asosiysi, umum ta'lim maktablarida yoshlarni milliy urf odat, mehr-oqibat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston mustaqilligining ma'naviy asoslariii mustahkamlash milliy qadriyatlarimiz, an'ana na urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa yosh avlod qalbi va ongiga, ona yurtga muxabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ayniqsa, yoshlarni o'zbek xalqining milliy qadriyatlari ruhida tarbiyalash juda muhim bo'lib qoldi. Chunki, avvalo O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda milliy qadriyatlar ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi; Ikkinchidan, globallashuv sharoitida ayrim yoshlarning boshqa, begona g'oya, harakatlarga misbatan qiziqishi, berilishini to'g'ri yo'lga solishda milliy qadriyatlarni har bir navqiron avlod vakili tomonidan anglab olinishi muhim o'rin egallaydi; Uchinchidan, milliy qadriyatlarni har bir yosh avlod ongida, qalbida e'tiqod sifatida shakllantirish ularning dunyoqarashida zaruriy element manba, asos bo'lib xizmat qiladi; To'rtinchidan, xozirgi davrda jahonda g'oyaviy, mafkuraviy kurashning kuchayishi. Turli taxdidlarning ortib borishi milliy qadriyatlarimiz orqali mafkuraviy immunitetni yoshlarda shakllantirishni taqazo etadi.

Yoshlar O'zbekiston Respublikasi axolisining 64 foizini tashkil etadi. Shu jihatdan ham yoshlar tarbiyasi, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hozirgi davrda juda muhim vazifa hisoblanadi.

Avvalo qadriyat nima? Qadriyat voqelikdagi muayyan xodisalarning umuminsoniy, axloqiy, madaniy, ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan falsafiy-sotsiologik, akseologik tushunchadir. Jamiyat, inson va

insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa, xodisa va voqealar, erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, obida-yodgorliklar, go'zallik, ahloqiy hislat hamda fazilatlar, an'ana, urf-odat, udum va boshqalar hisoblanadi.

Qadriyat deb inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat xodisalarini majmuiga tushuniladi. Inson bo'lmagan, yo'q joyda biror narsaning qadr-qimmatini haqida so'zlash bema'nilikdir. Shunga ko'ra inson hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi.

O'zbek xalqi ko'p asrlik tarixiy taraqqiyotida katta madaniyatni yaratdi. U yaratgan boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Al-Xorazmiy, Beruniy, Farobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Axmad Yugnaki, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy va boshqa buyuk mutafakirlarning asarlari orqali o'quvchilarga go'zal axloq, baxt, insof, poklik, iffat, sabr-ma'tonat, mehr-shafqat, ota-onani hurmat qilish qoidalari haqida keng tashvirlarga ega bo'ladi. Insoniylik o'z tarkibiga insonni eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, ya'ni odamlar o'rtasida o'zaro yaxshi munosabatda bo'lish, do'stlik, ota-onaga sadoqatlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini qamrab oladi. Ota-bobolarimiz bolalarda yoshlikdan ana shu go'zal fazilatlarini qaror toptirishga ahamiyat berganlar. Ilmu-fan avval Sharqda taraqqiy etgan, hurfikrlik bizdan boshlangan. "Sharq Yevropaning muallimidir" degan edi olmon olimi Xerler. Haqiqatdan ham shunday, o'zbek xalqining madaniy merosi ulkan bir dengiz. Darhaqiqat, milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish lozim. Chunki biror millat o'z qadriyatini boshqa millat qadriyatlaridan ajratib olib yarata olmaydi. Har bir millat ma'naviyatida o'ziga xos tomonlari bo'lsa ham, u umuminsoniy qadriyatlarning bir qismidir. Shu bilan birga unitmasligimiz kerakki, biz qurayotgan yangi jamiyat "binosi" uchun birinchi galda milliy qadriyatlar ustun bo'lmog'i lozim. Biz, eng avvalo, milliy o'zligimizni anglamog'imiz, o'z tafakkurimizni kashf etmog'imiz lozim. O'tmishimizda unitilgan shunday ulkan sarchashmalar borki, ularni atroflicha o'rganmoq birinchi galdagi vazifadir.

Har bir xalqning o'tgan avlodlar yaratib bergan meros bo'lib qolgan madaniy boyliklari xazinasiga milliy qadriyatlar va an'analar kiradi.

Milliy qadriyatlar va an'analar o'zining vujudga kelishi va rivojlanishiga ko'ra g'ayrioddiy xodisa emas, balki xalqning hayotini obrazli, muayyan aks ettiradigan va jamiyat taraqqiyoti qonunlari bilan belgilanadigan maqsadga muvofiq faoliyatdir.

Ajdodlarimizda jismoniy barkamollik qay darajada qadrlanganligi bizgacha tarixiy ma'lumotlar, an'anaviy tarbiya usullari, vositalarni va xalq og'zaki ijodi (dostonlar, qo'shiqlar ertaklar va b.q) orqali yetib kelgan.

Jismoniy yeguklik ayniqsa xalq dostonlarida ko'p madh etilgan. Xalq dostonlarining ijrochilari va tashviqotchilari baxshilar hisoblanadi. O'zbek baxshilaridan Ergash Jumanbulbul o'g'li, Po'ltan shoir, Fozil Yuldosh - o'g'li Islom Nazar - o'g'li, kabilarning ijodlarida (dostonlarida) jismoniy kamolotga juda yakindan yondoshib talqin qilinadi. Bu ham o'zbek xalqining jismoniy barkamollikka bo'lgan munosabatining naqadar ulug'vor ekanligidan dalolat beradi.

O'zbek xalqining an'anaviy turmushini o'rganishidan ma'lum bo'lishicha, hozirgi O'zbekiston Respublikasi xududida bir vaqtlar asosan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi elatlar yashagan. Ularning asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan. Chorvachilik bilan faqat yarim o'troqlar emas, balki o'troq dehqonlar ham shug'ullangan. Dehqonlar mollarni yer haydashda, bug'doyni yanchishda, daryo va quduqlardan suv tortishda ishlatgan. Shuningdek, chorva mollaridan savdogarlar va xunurmandlar ham foydalangan. Mana shular tufayli «Podachi», «Oqsoq bo'ri va qo'ylar», «Echqilar va cho'ponlar», «Oq tuya» va «Bo'ri keldi» singari qator o'zbek xalq o'yinlari kelib chiqqan.

Xalqimiz orasida hayvonlar va qushlar mavzuidagi juda qiziqarli raqslar «Kaptar o'yini», «Chag'alak», «Yumronqoziq», «Ot o'yini» va xokazolar keng rasm bo'lgan. Shuningdek, o'zbeklar orasida «Karnaymi, surnay», «Nina, in va tuguncha», «Tapir-to'pur qayrag'och», «Qovoq ekish», «Xo'rozlar jangi», «Xo'roz

va tovuq», «Qoch bolam qush keldi», «Oq terakmi-ko'k terak» kabi o'yinlar ham mashhur bo'lgan.

Milliy xalq o'yinlari juda qadim zamonlarda vujudga kelgan, rivojlanishining har bir tarixiy bosqichida mazmunan o'zgarib, turli ijtimoiy vazifalarni bajargan.

An'analar, fanlar shu jumladan, xalq milliy o'yinlari, millatimiz hayoti bilan bog'liq bo'lib, avloddan avlodga meros bo'lib o'tib kelgan. Avlodlar egallagan bilim va tajribalar amaliy hayotda sinalgan, keyingi avlodlar tomonidan mustaxkamlangan va takomillashtirilgan. Ularning mazmunini har bir avlod, jamiyat rivojlanishining har bosqichi yangilab borgan. Bolalar jamiyat rivojlanishining o'sha bosqichida kattalar o'ynagan xalq milliy o'yinlarini o'ynaganlar. Ko'pgina milliy o'yinlarni otalar va bobolardan bolalar va nabiralarga o'tgan.

Xalq milliy o'yinlarida xalqning ijtimoiy hayoti, mehnat faoliyati va turmush tarzi o'ziga xos shakllarda aks etgan. Ularda juda boy xissiyot va kechinmalar, o'z Vatanini sevuvchi, himoya qilish orzu-umidlari namoyon bo'ladi.

Milliy xalq o'yinlarini mazmuniga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

I. Dramalashgan o'yinlar;

- A) Hayotiy (tarixiy-hayotiy, madaniy-hayotiy, kasbkorlik-hayotiy);
- B) Kulgili o'yinlar;
- V) Qo'shiq va raqs o'yinlari;

II. Mazmunli-rolli o'yinlar;

- A) Mazmunli-harakatli;
- B) Sport o'yinlari;

III. Ijodiy o'yinlar

Milliy xalq o'yinlarining tarixiy vujudga kelishini tahlil qilib, dramalashgan o'yinlar o'zbek qo'g'irchoq teatrining negiziga aylangan qadimiy xalqning «qo'g'irchoq o'ynatish» san'ati asosida paydo bo'lgan, deya xulosa chiqarish mumkin.

Muayyan badiiy obrazni ifodalaydigan qo'g'irchoq mamlakat va kishilar hayotidagi tarixiy-turmush voqealarini aks ettiradi, madaniy-maishiy o'zgarishlarni amalga oshirgan ishlarini, go'zalligi va kamchiliklarini ifodalaydi.

Dramalashgan o'yinlar ko'pincha musiqa jo'rligida va qahramonlarning raqslari bilan o'tkaziladi. Bolalar katta yoshli kishilarning hayotini, mehnat faoliyatini, tabiat xodisalarini kuzatib hamda xalq tomoshalarida qatnashib, o'zlari ko'rgan narsalarni o'yinlarida tasvirlaganlar. Hayotni tasodifiy ravishda aks ettirish mazmunli-rolli, mazmunli-harakatli va sport o'yinlariga asos bo'lgan.

Dramalashgan o'yinlarga o'zbek xalq ertaklari va afsonalari asos qilib olingan. Mana shunday o'yinlarning maqsadi ertaklar va afsonalarni ijro etishdir. Dramalashgan o'yinlar o'z mazmuniga ko'ra juda yorqin bo'ladi. Ularda ishtirok etuvchilar esa xox hayvon yoki qush bo'lsin, xox odam bo'lsin, badiiy obrazning barcha xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan shaxslardir. Bunda hayvonot olami insoniy xususiyatlarga ham ega bo'ladi.

Ertakning mazmuni, qatnashuvchi shaxslar o'rtasidagi kurash bolani qiziqtiradi va uning qalbini rom qiladi.

Hayotiy o'yinlar xalqimizning o'rtasidagi tarixini, turmushini, madaniyatini va mehnat faoliyatini yoritadigan o'yinlardir.

Kulgili o'yinlar harakter va fe'l-atvorlarni mohirlik bilan yoritishga, kishilardagi ayrim salbiy hatti harakatlar ustidan kulishga asoslangan o'yinlardir. Bunday o'yinlar aybdorlarni «jazolash» va shu bilan birga kutilmagan hamda tasodifiy elementlarni kiritish maqsadida tashkil qilinadi. Ularda xalqimiz madaniyatining askiyachi va masxarabozlari keng shuhrat qozongan tarixi aks ettiriladi.

Qo'shiq va raqs o'yinlari xalq madaniyatining o'ziga xos janri, xalqimizning milliy og'zaki, teatr va musiqa an'analari targ'ibotchisi sifatidagi folklorlarga asoslanadi. Ular xalqimizning ma'naviy boyligini, estetik didini ifodalaydi.

Mazmunli-rolli va mazmunli harakatli o'yinlar o'ziga jozibador va qiziqarli bo'lib, mukammal mazmun hamda turli olam, tabiat, ayrim narsalarning sifatlari

bilan tanishtiradi. Mana shu guruhdagi o‘yinlarning mohiyati va ahamiyati boshqachadir.

Ijodiy o‘yinlarga quyidagilar kiradi:

A) O‘quvchilarning o‘zlari o‘zbek xalq ertaklari va afsonalari asosida yaratadigan o‘yinlar:

B) Estetik maqsadga qaratilgan ixtiyoriy va mavzuli o‘yinlar;

V) Maqsadga muvofiq badiiy o‘yinlar, o‘quvchilarning o‘zlari yaratadigan boshlanishi va oxiri har xil o‘yinlar, natijasi ma’lum bo‘lgan o‘yinlar;

G) O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini faollashtiradigan she’r to‘qish, qo‘shiq, raqs, imo-ishoralar, taqlid qilish, va hokazolar bajariladigan o‘yinlar;

D) Tasviriy ijodkorlikka, o‘yinlar uchun kerakli narsalarni bajarishga doir o‘yinlar.

Xalq o‘yinlari hayotiy voqealarga murojat etib, ularni nihoyatda xilma-xil, o‘zining boyligi va rang-barangligi bilan kishini maftun qiladigan badiiy obrazlarda ifodalaydi.

Milliy xalq o‘yinlarining tarbiyaviy haqida gap borar ekan, shuni alohida takidlash lozimki, ular eng avvalo bolalarda o‘z mahallasiga, qishlog‘iga, shahriga, tabiatga, mamlakatimizda yashovchi barcha xalqlarga muhabbat, hurmat va extirom xislarini, milliy g‘ururni tarbiyalaydi. Eng muhimi, o‘zbek xalqining milliy madaniyatiga, o‘tmishiga va hozirgi turmushidagi, milliy an‘analari hamda san‘atiga muhabbat uyg‘otadi.

Shuningdek, o‘quvchilarni xalollikka, saxovatlilikka o‘rgatadi, kattalarning tajribasini bolalar va yoshlarga o‘tkazishning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. O‘g‘il va qizlarda mehnatga ongli munosabatni shakllantiradi. Ularning kuchli, chaqqon, epchil, chidamlilik, serharakat, ziyrak, topqir, botir, jasur, o‘zaro hamkor bo‘lishlariga yordam beradi.

II.2. Milliy xalq o‘yinlari orqali barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazishning mazmun, shakl va metodlari

Har bir mamlakat, xalq va millatning o‘ziga xos an‘analari, urf - odatlari, marosimlari va bayramlari bor. Bu o‘sha xalqning og‘zaki va yozma ijodida, san‘atida, hayot va faoliyatining elementlarida, kiyim - kechaklarida namoyon bo‘ladi. Boshqa xalqlarda bo‘lganidek, o‘zbeklarda ham oilaviy - maishiy marosimlar (bola tug‘ilishi, nom qo‘yilishi, nikoh to‘yi v.b.) mehnat bayramlari hosil bayrami, "Navruz", "Qushchi oshi", "Mola haydash", v.b.) qadimdan bayram qilib kelingan. Bu marosimlar ilg‘or mazmunga ega bo‘lib, hozirgi kunda ham xalqimiz milliy hayotini boyitib, to‘ldirib turibdi.

Mamlakatimiz uzra mustaqillik mafkurasi shiddat bilan o‘z maqsadlarini amalga oshirib kelayotgan bir paytda xalqimizning an‘anaviy bayram va urf - odatlarining tarixiy rivojlanish davriga nazar solmaslik noo‘rindir. Shu bilan birga hozirgacha o‘rganilmay kelinayotgan o‘zbek xalq bayramlari uzoq va boy tarixga ega ekanligini e‘tirof eta olmaymiz. Agar tarixchi, madaniyatshunos olimlarning "bayram inson bilan birga paydo bo‘lgan va rivojlangan" fikriga tayansak, bayramlar kurtaklarini eng qadimiy poleolit davridan, ya‘ni O‘rta Osiyoda odam zoti paydo bo‘la boshlagan - 500 ming yil avvalgi vaqtdan izlanishi kerak ekan. Shu bilan bir vaqtning o‘zida bir yarim million yil doirasidagi inson hayoti, madaniyati, odatlari jiddiy tadqiqot va izlanishlarni kutganligi haqida ham olimlarimizning shaxsiy fikrlari asosli ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Biz esa, hozirgi kunda, keyingi tahminan 3 ming yil mobaynida O‘rta Osiyoda yashab istiqomat qilib kelgan etnoslar - sak, massaget, baqtriya, sug‘dlar, xorazmiylar kabi ajdodlarimizning bayramlari va so‘ngra o‘rta asrlarda yashagan hamda o‘z madaniyati, urf - odatlari bilan shakllanib kelgan o‘zbek xalqining an‘anaviy bayramlarini o‘rganamiz.

Xalq o‘yinlari va tomoshalari.

Milliy madaniyatimizning serqirra ko‘rinishlaridan hisoblangan xalq o‘yinlari va tomoshalari alohida e‘tiborga molikdir. Bu milliy meros o‘zining kelib chiqishiga ko‘ra uzoq tarixga ega bo‘lib, ajdodlarimiz ijodiy salohiyati, ma‘naviy va jismoniy rivojlanish ehtiyojlari negizida yaratilgan va bugungi kunda ham ana shu maqsadlarga amal qilib kelmoqda.

Xalq o‘yinlari va tomoshalari an‘anaviy va ommaviy ijodiy maxsuldir. Bu ijodiy maxsul ko‘p asrlar davomida xalqimizning ijtimoiy - maishiy hayotini tarannum etib kelgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan jamiyatda sodir bo‘lgan ichki va tashqi siyosat, iqtisodiy o‘zgarishlar hamda mafkuraviy ta’sirlar ostida, yangicha tus va shakllarda o‘zgarib bordi, ko‘pchilik hollarda o‘z xususiyatlarida zamon talablariga bo‘ysundi, o‘zgardi va ba’zi ko‘rinishlari unutildi. Biroq aksariyat o‘yinlar va tomoshalar xalq urf odatlari, marosimlari va bayramlariga asoslanib ijtimoiy hayot bilan hamnafas bo‘ldi, oddiy insonlar turmush tarzida muhim rol o‘ynab yashab kelmokda. Bu madaniy meros shodiyona va g‘amgin (motam, qayg‘u) kunlarida xam insonlarni bir joyga to‘plab, umumiy kechinmalari va tuyg‘ularini muayyan badiiy shakllarda ifodalanishiga xizmat qildi. Xalq termalari, aytishuvlari, savol - javoblari, qo‘shiqlari, raqslaridan baxramand bo‘lgan tadbir qatnashchilarining kayfiyatlarini yuksaltirib, tomoshabinlarning ehtiroslarini birlashtirib kelgan. Mashg‘ulotlarimizning birida bu fikrlar ustida ayrim ma‘lumotlarga ega bo‘lgan edik.

Xalq o‘yinlari va tomoshalari, marosim xamda bayramlarida uzoq davrlar davomida avloddan - avdodga o‘tib kelayotgan bu meros zamirida xalqimizning ijrochilik mahorati, iste‘dodi, uning dunyo qarashi, orzu - niyatlari va kelajakka bo‘lgan intilishi yotadi.

Xalqimizning ommaviy o‘yin va tomoshalari mohiyatan bir - biriga bog‘langan yagona badiiy maxsuldir, chunki ikkalasida xam ijrochi va tomoshabin bor, ma‘raka va maydon bor, shu bilan birga muayyan talab va qoidalar asosida, ma‘lum usullarga tayangan holda tarannum etib kelinadi.

Xalq o‘yinlari va tomoshalari o‘zining ijro etilishi buyicha yakka va ommaviy (guruh) ko‘rinishda namoyish etiladi. Masalan yakka ijrochilar -

bakovullar, qiziqchilar, baxshilar, mukallidlar, ayiq, maymun, ilon o'ynatuvchilardir. Bu ijodkor ijrochilar yakka xolda shahar va qishloq hududlarida bo'lishib xalq to'planadigan gavjum joylar - bozor, guzar, mahalla va katta ochiq maydonlarda o'z san'atlarini namoyish etsalar, guruh ko'rinishidagi san'atkorlar - qiziqchilar, masxarabozlar, dorbozlar, tosh ko'taruvchi polvonlar, qo'g'irchoqbozlar va boshqalar o'z mahoratlarini katta maydon, o'yingoh hamda teatrlashtirilgan sahnalarda namoyish etib tomoshabinlarning ko'ngillarini xushnud etib kelganlar.

Mana shunday turli toifadagi ijrochilarni o'ziga xos bo'lgan "milliy tsirk" kabi ijodiy guruxlar o'z atrofiga masxaraboz, tosh kutaruvchi va kurashga tushuvchi polvonlar, dorbozlar xamda qiziqchilarni to'plaganlar.

Milliy harakatli o'yinlarning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi.

Harakatli o'yinlar o'z nomi bilan inson faoliyatini ta'minlovchi mazmunga egadir. Buni eng qadimgi ajdodlarimiz ham ongli ravishda chuqur bilishgan va amal qilishgan.

Boshda takidlanganidek kurash, ot o'yinlari, kamondan (yoy) nayza (o'q) otish, nayza sanchish, kaltak, tosh va boshqa moslamalarni uloqtirib yovvoyi hayvonlarni ov qilishgan.

Ijtimoiy tuzumlar (formatsiya) almashishi va rivojlanishi tufayli turmush sharoit ham o'zgargan, rivoj topgan. Mehnat qilish, oilada bolalarni tarbiyalash, ov qilish, dushmanlarga qarshi jang qilish va boshqa juda ko'p sabablarga ko'ra harakatli o'yinlar, turli jismoniy mashqlar maqsadli hamda keng qo'llangan.

Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyatning ibtidoiy jamoa davrida paydo bo'lishi haqidagi N.I.Ponomarevning monografiyasida (Leningrad, 1972 y) ta'kidlanishicha qadimgi kishilar yashash, mehnat qilish uchun tabiat bilan qarama-qarshi turishgan. Osiyo, Yevropa qit'alarida yashagan odamlar asosan ov bilan shug'ullanib, turli xil harakatli o'yinlarni kashf etishgan. Bunda hayvonlarning hatti-harakati, tabiatdagi turli o'zgarishlarga qiyos qilishgan.

Yovvoyi-yirtqich hayvonlardan saqlanish, ov qilish jarayonlarida epchillik, kuchlilik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlar sarf-qilinishini tushungan qabila, urug‘ boshliqlari, yoshlarni maxsus tayyorlashga kirishganlar. Bunda jismonan baquvvat, epchil kishilarni tarbiyachi yo‘liga o‘rgatib, ulardan bolalarni tarbiyalashda foydalanilgan.

Quldorchilik tuzumi davrida mayda hunarmandchilik va keyinchalik ishlab chiqarish rivojlangan. Natijada metall buyumlardan qilich, nayza, pichoq, bolta, o‘roq kabi jang va mehnat qurollarini yasashgan. Ulardan turli marosimlarda o‘yin sifatida foydalanganlar.

Ilk bor davlat paydo bo‘lgan Greklar, Rimliklar va ularning atrofidagi xalqlarning ijtimoiy turmush sharoitida urushlar ko‘p bo‘lganligi sababli harbiy qurollarni yasash asosiy o‘rinda turgan. Mohirona jang qilish uchun esa askarlarni har tomonlama jismoniy jihatdan tayyorlashgan. Jang mashqlarining ba’zi qismlarini (element) o‘yinga aylantirib, xalq orasida keng tarkalgan.

Kadimgi greklarning Sparta tizimi, italiyaning Rim tizimi va shunga o‘xshash tarbiya maskanlarida eng murakkab mashklar, jang amallari o‘rgatilib, ularni omma o‘rtasida tomosha sifatida namoyish etishgan (“Spartak”, “Geraklning jasorati” va shunga o‘xshash kinofilmlarni eslab ko‘ring).

O‘zbek xalq milliy o‘yinlarini ikki toifaga ajratish mumkin, ya’ni:

1. Murakkab harakatli o‘yinlar (kurash, ot o‘yinlari, dorboz, arqon tortishish, bilak kuchini sinash, tosh (gir) ko‘tarish va h.k).

2. Oddiy harakatli o‘yinlar (xo‘rozlar jangi, oq terakmi-ko‘k terak, chillik, orqang kuydi, to‘qqiz tosh, bo‘ron, shuvoq va h.k).

Ta’kidlash joizki, kurash, ot o‘yinlari (poyga, sakratish, raqs), tosh (gir) ko‘tarish kabilar mustaqil sport turi bo‘lib hisoblansada, ularning qismlari (element) o‘yin sifatida foydalanib, xalq istemolida chuqur o‘rin egallamoqda.

Milliy harakatli o‘yinlar tushunchasi haqida gap ketsa, aytish mumkinki faqat mamlakatimiz xududlarida eng qadimgi davrlardan buyon qo‘llanilib kelinayotgan o‘yinlardir. Lekin ular orasida Markaziy Osiyo, Yevropa mamlakatlaridan u yoki bu sabab bilan kirib kelgan va chuqur o‘rinlashib,

milliylashib ketgan harakatli o‘yinlar ham oz emas. Masalan: “Mushuk bilan sichqon”, “Qarmoq”, “Qopqon”, “Bayroq uchun kurashish”, “Yelka urishtirish” (xo‘rozlar jangi) va h.k.

Yuqorida ta’kidlanganidek o‘zbek xalq milliy harakatli o‘yinlarining kelib chiqish va rivojlanish tarixi qadimgi ajdodlar va avlodlar tarixiga borib taqaladi.

Sobiq Ittifoq hokimiyati yillarida zahmatli mehnatlari bilan jahonda nom qozongan arxeologik olim, akademik Yahyo G‘ulomov, yaqin davrlar ichida jiddiy qidiruv ishlari bilan shug‘ullangan arxeolog, tarixchi yosh olim Toshnazar Omonjo‘lov va boshqa bir qator mutaxassislarining ilmiy izlanishlari natijalaridan harakatli o‘yinlar haqida qiziqarli malumotlar olish mumkin. Ularning ko‘rsatishicha Samarqand (Afrosiyob, Omonqo‘ton, Registon atrofi), Surxandaryo (Termiz, Dalvarzin tepa, Teshik tosh), Toshkent (Sirdaryo yoqalari va uning atroflari, qurama tizma tog‘lari, Chotqol tog‘ etaklari) va boshqa viloyatlarda o‘tkazilgan qazilma topilmalarida harakatli o‘yinlarni tasvirlovchi shakllar, rasmlar ko‘p uchraydi. Shuningdek toshlarga o‘yib chizilgan shakllar va rasmlarda ov qilish, ov qurollari, hayvonlar bilan olishish, parrandalar va hayvonlarni o‘rgatib o‘ynatish kabi holatlar qadimgi ajdodlarning harakatli o‘yinlaridan dalolat ekanligini tasdiqlashgan.

Hozirgi davrda xalq ommasi orasida juda mashhur bo‘lgan milliy o‘yinlardan kurash, ko‘pkari-uloq, poyga, dorboz, qilichbozlik, nayza uloqtirish, yuklarni ko‘tarish kabilar eng qadimgi davrlardan buyon davom etib kelayotgan harakatli (murakkab) o‘yinlardir. Ularning kelib chiqish va taraqqiy qilish jarayonlari haqida rasmiy manba’lar juda ko‘p desa bo‘ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O‘zbek xalq milliy harakatli o‘yinlari ijtimoiy-tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Ularni o‘quv yurtlarida kengroq o‘rgatish, aholi turar joylarida maxsus o‘yinlar tashkil etish lozim bo‘ladi. “Chillik”, “Podato‘p”, “Oq suyak” kabi o‘yinlarning mazmun va mohiyat jihatdan o‘ta zarurligi, hamda ba’zi sport turlaridan ustun turishini chuqurroq o‘rganish, ularni sport darajasiga chiqarish yo‘llarini izlash kerak.

Zamonaviy milliy harakatli o‘yinlarning turkumlari.

Boshda izohlanganidek juda ko‘p harakatli o‘yinlar chetdan kirib kelib, ular milliy lashib ketgan. Chunki, ularning mazmun, maqsad va mohiyatlari yurtimizning iqlim sharoitlari, aholining ijtimoiy mehnat va turmush madaniyatiga mos keladi. Shu sababdan milliy harakatli o‘yinlar tarkibida uchraydigan boshqa millatlarning harakatli o‘yinlari haqida fikr-mulohazalar yuritilsa ajablanmaslik zarur.

Atoqli olimlar M.Murodov, U.Qoraboev, M.Jabborov, J.Toshpo‘latov, A.Atoev, R.Abdumalikov, T.Usmonxo‘jaev kabilarning ilmiy-nazariy mulohazalari hamda o‘yinlarning mazmunlari asosida milliy harakatli o‘yinlarini quyidagi turkumlariga ajratish mumkin:

1. Tabiat manzaralari, fanlar bilan bog‘liq o‘yinlar. Bunga “Ko‘chat o‘rnat”, “Kartoshka ekish”, “Yomg‘ir”, “Ayozi bobo” kabilarni namuna qilib ko‘rsatish mumkin. Ularning mazmuni va o‘yin holatlari (joylar, bajarilish tartiblari, qoidalar). Tabiatning go‘zalligi, ob-havoning o‘zgarishi, sovuq va yomg‘irlardan saqlana bilish kabi harakatlar asosida shug‘ullanuvchilarning hushyorlik, epchillik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlari va insonning aqliy fazilatlarini tarbiyalashda xizmat qiladi.

2. Hayvonot olami bilan bog‘liq o‘yinlar, “Qushlar pr...r etib uchdi”, “Kalhat keldi, qoch bolam”, “Bo‘rilar va ovchilar”, “Zovurdagi bo‘rilar”, “G‘ozlar”, “Tulki bilan xo‘roz”, “It va qarg‘a” va shu kabi juda ko‘p o‘yinlarda o‘zaro munosabatlar, yaxshilik va yomonlik, o‘zini ehtiyot tutish kabi fazilatlar bilan birgalikda barcha jismoniy sifatlarni tarbiyalash amalga oshiriladi. Shu asosda bolalarda hayvonot olamiga bo‘lgan qiziqish, parrandalarni asrash kabi his-tuyg‘ular uyg‘onishi mumkin.

3. Mehnat bilan bog‘liq o‘yinlar. Inson faoliyati aqliy va jismoniy mehnat bilan belgilanadi, ularni harakatli o‘yinlar mazmunida ham uchratish mumkin. Aqliy mehnatga doir o‘yinlar turkumiga “Sanash o‘yinlari”, “Sonlarni yozish va o‘ylab top”, “Ism yoki buyumlarni ketma ket va aralash turib aytish”, “Sakrab qo‘shiq aytish”, “Rasmlarni tez chizish”, “Shakllarni (kubok) joylashtirib o‘z

holiga keltirish” (shakl yasash) va shunga o‘xshash faoliyatlarni aks ettiruvchi o‘yinlar kiradi.

Jismoniy mehnatni aks ettiruvchi harakatli o‘yinlar ham juda ko‘p. Ularga “O‘tin yorish”, “Poda to‘p” (cho‘pon), “Qo‘sh haydash” (erni haydash, chopish), “Osilib chiqish”, “Tortilish”, “Yuk ko‘tarish”, “Eshak mindi”, “Piyoda poyga”, “Poezd” va b.q. kiradi. Ularning mazmunida mehnat qilish yo‘llari, bajarish usullari hamda chidamlilikni ifoda etuvchi hislatlar mujassamlanadi.

Umuman olganda milliy harakatli o‘yinlarning barchasida aqliy va jismoniy mehnatlar uyg‘unlashib, asosan jismoniy barkamollikni tarbiyalashda xizmat qiladi.

4. Ommaviy madaniy tadbirlarda (bayramlar, to‘ylar, turli xil marosimlar, sport musobaqalari va h.k) qo‘llaniladigan, ya‘ni namoyish va musobaqalashish maqsadida murakkab va oddiy harakatli o‘yinlar qo‘llaniladi. Ular tarkibiga kurash qismlari (elementlari, ot o‘yinlari, ko‘pkari-uloq, poyga), dorboz, tosh ko‘tarish, arqon tortishish, yelka urishtirish, xo‘rozlar jangi va h.k. kiritiladi.

5. Jismoniy sifatlarni tarbiyalashda xizmat qiluvchi o‘yinlar ham harxil turkumlarga bo‘linadi. Ularga quyidagilarni namuna qilib ko‘rsatsa bo‘ladi, ya‘ni:

Tezlikka doir o‘yinlar: “Qopqon”, “Kim oldin”, “Insiz quyon”, “To‘rt oyoqlab yugurish” (emaklab yugurish), “Hakkalagan qushchalar”, “Uchinchisi ortiqcha”, turli estafetalar va boshqalar.

Kuchga doir o‘yinlar: “Oq suyak”, “Chillik”, “Yelkada ko‘pkari”, “Eshak mindi”, “Arqon tortishish”, “Bilak kuchini sinash”, “Qo‘llarda tortinish” va boshqalar.

Chidamlilikka doir o‘yinlar: “Oq terakmi-ko‘k terak”, “Davradan chiqar”, “Olamon poyga”, “Dorboz”, “Oqsoq qarg‘a”, “Oshiq” (gardkam), “Qilichbozlar”, “Besh tosh”, “To‘qqiz tosh”, “Orqang kuydi”, “Bo‘ta soldi”, “Tortishmachoq”, “Ko‘z bog‘lash”, “Bekinmachoq”, “Kim keldi”, “Dorboz”, “Zuv-zuv” va h.k.

Yuqorida nomlari keltirilgan murakkab va oddiy (sodda) o‘zbek xalq milliy o‘yinlari barcha yoshdagilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash bilan birgalikda

insoniy fazilatlarni ham shakllantirish va ularni yanada takomillashtirishda bevosita xizmat qiladi.

Bolalarga xos bo'lgan epchillik, ixchamlik, abjirlik, uddaburonlik qayishqoqlik kabi xususiyatlarni rivojlantirishda faqat jismoniy tarbiya darslaridagi harakatli o'yinlar bilan chegaralanib qolmaslik lozim. Ularning bo'sh vaqtlarida hovli, ko'cha, maydonlarda erkin ravishda shug'ullanishlari va bunda sport o'yinlari, gimnastika, yengil atletika, kurash kabi sport turlarining qismlari (elementlari) bilan shug'ullanishlarini ham ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa shundan iboratki, xilma-xil turkumlarga bo'linadigan harakatli o'yinlarni o'z vaqtida maqsadli qo'llash zarurdir.

Milliy harakatli o'yinlarning ijtimoiy pedagogik xususiyatlari va uni takomillashtirish muammolari.

Ta'lim tarbiyaning kaliti pedagogik jarayonlar hisoblanadi. Shu o'rinda jahon poeziyasining namoyandalaridan biri Rasul Xamzatovning "Eshikni tepma, kalitini burasang o'zi ochiladi" – hikmatli iborasi ta'lim tarbiyaga to'g'ri keladi.

Respublika Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan balki birinchi navbatda, o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir".

Yuksak madaniyat esa, ta'lim - tarbiya jarayonida shakllanadi, rivoj topadi va takomillashadi. Pedagogik ta'limning muhim bosqichlaridan biri jismoniy tarbiya hisoblansa, uning mazmunlarida xilma-xil mashqlar sport turlari, sayohatlar, tabiatning sog'lomlashtiruvchi (quyosh, suv, havo, gigienik talablar) omillari qatorida harakatli o'yinlar mustahkam o'rin egallaydi.

Boshida ta'kidlaganidek, insonlarning tabiiy harakatlarini maxsus jismoniy mashqlar va milliy harakatli o'yinlar orqali tarbiyalanadi, ularning rivojlanishi va takomillashishida xizmat qiladi. Ayniqsa, jismoniy xolatlar va insoniy fazilatlarni shakllantirish, ularni tobora kengaytirishda muhim omillardan bo'lib hisoblanadi.

Deyarlik, barcha harakatli o'yinlar aqliy, estetik, mehnat va ahloqiy tarbiya bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Shu asosda bolalar nutqini o'stirish, til boyligini kengaytirish, ruhiy emotsional xolatlarni (zukko, quvnoqlik, shodlik, xursandlik va h.k) rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Onglilik ko'rish, eshitish, his etish kabi tuyg'ularni rivojlantirishda mazmun va maqsad jig'atdan qo'llash uchun o'yin g'oyat ko'p. Masalan: Tunda oy yorug'ida "Oq suyak" o'yinini yoshlar va katta yoshdagi kishilar aralashib o'ynashgan. Bunda ko'z yumuq xolda uzoqqa otilgan suyakning yerga tushishini eshitish, his etish talab etiladi. Suyakni topib manzilga yetkazishda tezlik, epchillik va kuch zarur bo'ladi. Chunki, suyakni raqiblar tortib olishi kerak.

"Ovchilar", "G'ozlar", "Kartoshka ekish", turli estafetali o'yinlarda hatto harakatlar yugurish, yiqilishlar, to'p tushirish, qo'yish va uni ushlab olish kabi xolatlarda raqiblarining zavqini oshirsa, jamoa a'zolarining zavqini qo'zg'aydi. Tomashabinlarda kulgi-shodlikni oshiradi. "Oq terakmi, ko'k terak", "G'ozlar" kabi o'yinlardagi qo'shiq she'rlarning kuylanishi-aytilishi o'yinchilarda nutqni o'stirish tomoq yo'llarini chiniqtirishda o'ziga xos tarbiyaviy jihatlar mavjuddir.

Harakatli o'yinlarning eng muhim va ustuvor tomonlari shundaki, o'yin joylari ma'lum chegara bilan belgilanadi. hamda o'yin qoidalariga to'liq rioya qilishni talab etiladi. O'yin qoidalarini bilib-bilmay buzganlarga jarima yoki shartli jazolar beriladi.

O'yinlarning tartibli, mazmunli va qiziqarli bo'lib o'tishida, o'qituvchi va faol o'quvchilarning roli g'oyat kattadir. O'yinlarni o'tishini nazorat qilishda hakamlar (faol o'quvchilar yoki jismonan ojiz bolalar) adolatli ish olib borishadi. Bundan tarbiyaviy jihatlar milliy harakatli o'yinlarning pedagogik jarayonlardagi ibratli tadbirlardan deyish mumkin.

Ko'rgazmali ya'ni didaktik tamoyillar (printsip) va usullar, harakatli o'yinlarni o'rganish, ularni o'tkazishda ko'p qo'llaniladi. Maydon yoki o'yin joylarini chizib ko'rsatish, qoidalarni qo'llar bilan ifodalash, o'yinchilarning texnik harakatlarini chizishda (rasm sxema) ifodalashlar muhim ahamiyatga egadir. Jadvallar chizmalar (sxema), slayd, video tasvirlar va boshqa texnik vositalardan

foydalanishda harakatli o'yinlarning ijrosini to'la aks ettiriladi. Bu xolatlarni bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari izchil va mukammal egallashlari lozim bo'ladi.

O'yinlarning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini mazmuniy jihatdan o'rganish va tahlil qilish ularni o'quvchi-yoshlar, talabalar va katta yoshdagi kishilar o'rtasida tashkil qilishda ana shu maqsadlarni belgilab beradi. Shu sababdan talabalar kurs, diplom (bitiruv) ishlarini tayyorlashda milliy harakatli o'yinlarni chuqurroq o'rganish, ularning tarbiyaviy jihatlariga e'tiborni jalb qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xalq pedagogikasi va ma'naviy ma'rifiy madaniyatimiz o'quvchi yoshlarni ma'naviy hamda jismoniy kamolotga yetkazish yo'llarini aniq belgilab bergan. Bu yo'lda "Davlat ta'lim standartlari", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Sog'lom avlod uchun davlat dasturi" va boshqa bir qator rasmiy manba'lar keng yo'l ochib berganligini e'tirof etmoq kerak.

Ma'lumki, aksariyat ko'pchilik jismoniy tarbiya o'qituvchilari harakatli o'yinlarni ikkinchi darajali deb hisoblashadi. Shu tufayli sport o'yinlari, gimnastika, yengil atletika kurash kabi darslarda harakatli o'yinlarni nomigagina (yuzaki) tashkil qilishadi.

"Harakatli o'yinlar" uchun alohida ajratilgan (dasturda) soatlarni ham boshqa turlarga qo'shib yuboradi. Shuningdek, milliy harakatli o'yinlarning ijtimoiy pedagogik xususiyatlari haqida yetarlicha ma'lumot berishmaydi, boshqalar hatto eslamaydilar ham.

Xulosa

O'quv yurtlaridagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil qilishda asosiy e'tibor barcha o'quvchilarning to'liq qatnashishiga qaratilgan. Jismoniy mashg'ulotlarni olib boradigan o'qituvchi murabbiylardan inson a'zolarini o'rganuvchi fanlarni mukammal bilish talab qilinadi. Ibn Sinoning ma'naviy qarashlari bo'yicha shunday xulosaga kelish mumkinki, doimiy jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish, to'g'ri va uzluksiz jismoniy tarbiyani tashkil qilish orqali jismoniy barkamollikka erishiladi. Agar bu ma'naviyatning asosiy talablari barcha o'quv yurtlarimizda to'liq olib borilayotganligini ko'rayotgan bo'lsak, demak o'quvchilarning sog'lom bo'lishi, jismoniy baquvvat bo'lishi, chiniqqan bo'lishi, chidamli bo'lishi, kuchli bo'lishi jismoniy tarbiya o'qituvchisi faoliyatining to'g'ri tashkil qilinganligiga, ularning bilim doirasiga bog'lik, ekanligini ko'ramiz. Asosiy e'tiborni jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlovchi o'quv yurtlarining kadrlar tayyorlash darajasini Ibn Sinoning ma'naviy qadriyatlariga qaratishimiz, chuqur o'rganishimiz kerak bo'ladi. Jismoniy tarbiyaning turlariga, mashqlarning yuklamalariga ajratilishi ham allomaning «Tib qonunlari» kitobida alohida boblarda alohida ko'rsatib o'tilgan. Ushbu kitobda, jismoniy mashqlarning inson organizmini tiklashdagi va sog'lomlashtirishdagi o'rni ilmiy tahlilga olingan. Sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya turlari bo'yicha jismoniy tayyorgarlikni tashkil qilish, umumiy jismoniy tayyorgarlik va mahoratli sportchilarni tayyorlashga qaratilgan jismoniy mashqlarga ajratilishini allomaning asarlaridan topishimiz mumkin.

Jismoniy ta'lim jarayonini milliy an'analar vositasida tashkild etish, avvalo ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy tarbiyaning omili sifatida xizmat qiladi. Bu borada ilg'or tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarning ish uslublarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish ularni ta'lim jarayoniga bevosita kiritish hamda ularni muntazam ravishda qo'llash maqsadga muvofiq sanaladi.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси «Таълим тўғрисида» ги қонуни. (1997 йил 29 августда қабул қилинган): Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиёти-нинг пойдевори. -Т.: Шарқ нашриёт-матбаа контсерни. 1997.й.
2. Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури (1997 йил 29 августда қабул қилинган). Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. -Т.: Шарқ нашриёт– матбаа контсерни. 1997.й.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонуни. Т. Ўзбекистон, 1992 й, 2000 й.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон-келажаги буюк давлат Т.Ўзбекистон. 1992 й.
5. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин.Т. Ўзбекистон. 1994 й.
6. Каримов И.А.Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори Т.Шарқ. 1997 й.
7. Каримов И.А.Ўзбекистон буюк келажак сари Т. Ўзбекистон. 1999 й.
8. Каримов И.А.Ўзбекистон ХХИ асрга интилоқда Т. Ўзбекистон 1999 й.
9. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. Т. Ўзбекистон 2000 й.
10. Каримов И.А Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура” Т. 2003й.
11. Каримов И.А Юксак маънавият- енгилмас куч. Т.Ўзбекистон. 2008 й
12. Абу Наср Форобий. Рисолалар. Т. ФАН. 1975й. 71-72 бетлар.
13. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари.1-китоб,Т.1993й.
14. Темур тузуклари.Т.1991й.
15. Алпомиш достони 1-2 қисмлар, Т., «Ўзбекистон», 1992-1993й.
16. Абдумаликов Р. Кўпкари - халқ миллий ўйини. Методик тавсиянома, Т.1991й.
17. Абдумаликов Р., Эшназаров Ж.Е., Аждодлар жисмоний маданият тарихини ўрганиш масалалари, ўқув қўлланма, Т., Матбуот, 1993.
18. Ақромов А.К. Ўзбекистонда жисмоний маданият ва спорт тарихи. ўқув қўлланма.Т.1997, 1999й.й.
19. Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. Т. 1996 й.

20. Баратов Н, Алиқулов Х. Ўрта Осиё мутафаккирлари ахлоқ ҳақида. Т. Ўзбекистон, 1974 й.
21. Беруний. Руҳият ва таълим-тарбия ҳақида. Т. 1992 й.
22. Бозоров О, Шодиев Д. Ўрта Осиё тасаввури ва ахлоқий қадриятлар. С. Зарафшон, 1992 й.
23. Ботиров Х.А. Ўзбекистонда жисмоний тарбия тарихи. Т. Шарқ. 1993 й
24. Мусурмонова О. Ўқувчиларнинг маънавий маданиятини шакллантириш. Т. 1993 й.
25. Паҳлавон Маҳмуд. Рубоийлар. Т. 1979 й.
26. Юсупов Э Ёшларнинг маънавий камолоти. Т, Ўзбекистон, 1995 й.
27. Юсупов Э. Маънавият асослари. Т. 1998 й.
28. Туленов Ж. Қадриятлар фалсафаси. Т. 1998 й.
29. Абдуллаев А, Хонкелдиев Ш, Назаров О. Халқ миллий ўйинлари инсон жисмоний тарбиясининг асосий воситаси сифатида Фарғона. 18-21 бет. "Алпомиш" халқ ўйинлари ва миллий спорт турларини ривожлантириш муаммолари (Илмий -амалий анжуман материаллари). Фарғона-.2000 йил.
30. Абдумаликов Р, Абдуллаева Н, Қорабоев Н, Абдураззоқов М, Ўзбекистон жисмоний тарбия тизимида миллий спорт турлари ва ҳаракатли ўйинлари Фарғона 21-24 бет. "Алпомиш" халқ ўйинлари ва миллий спорт турларини ривожлантириш муаммолари (Илмий -амалий анжуман материаллари). Фарғона-2000 йил.
31. Абдурахмонов М, Асосий мақсадимиз- соғлом, баркамол авлодни тарбиялаш. СамТИ. 6-7 бет. Баркамол авлодни тарбиялашда жисмоний тарбиянинг роли (Илмий-амалий анжуман материаллари). Бухоро-2002 йил.
32. Абдуллаев А, Абдураззоқов М, Баркамол авлод жисмоний тарбияси қонуниятлари. ФарДУ. 11-13 бет. Баркамол авлодни тарбиялашда жисмоний тарбиянинг роли (Илмий-амалий анжуман материаллари). Бухоро-2002 йил.
33. Абдуллаев А, Хонкелдиев Ш, Инсон жисми тарбиясида аждодларимиз анъаналари ФарДУ 24-27 бет Болалар ва ёшлар ўртасида миллий курашни

ривожлантиришнинг долзарб муаммолари (Илмий-амалий анжуман материаллари). Бухоро-2004 йил.

34. Абдуллаев Ш,Зарипов Я, Ўзбек миллий ҳаракатли ўйинлари миллий тарбиянинг муҳим таркибий қисми сифатида БухДУ.. 165-166 бет.Баркамол авлодни тарбиялашда жисмоний тарбиянинг роли (Илмий-амалий анжуман материаллари). Бухоро-2002 йил.

35. Абдуллаев Ш. Миллий мафкура ва миллий жисмоний тарбия .БухДУ. 166-168 бет. Баркамол авлодни тарбиялашда жисмоний тарбиянинг роли (Илмий-амалий анжуман материаллари). Бухоро-2002 йил.

36. Абдумаликов Р, Холдоров Т.Х, Намозов З.А, Жисмоний маданиятнинг қонуниятлари ЖДПИ 40-42 бет. Жисмоний тарбия машгулотларида замонавий педагогик ва ахборот технологиялари. (Олий таълим муассасалари илмий –назарий анжумани). Тошкент-2008 йил.

37. Атоева М.Я. Маънавият инсоний фазилат. БухДУ 164-165 бет. Ўқитишнинг педагогик-психологик асослари:муаммо ва истиқболлар (Илмий-амалий анжуман материаллари). Бухоро-2002 йил.

38. Атоева М.Я. Жисмоний маданият ва маънавий камолот БухДУ. 40-42 бет. Баркамол авлодни тарбиялашда жисмоний тарбиянинг роли (Илмий-амалий анжуман материаллари). Бухоро-2002 йил.

39. Ахмедов Ф, Аминжонов Ш, Жисмоний баркамоллик ва кадриятлар ҳақида. СамДУ.148-149 бет. Баркамол авлодни тарбиялашда жисмоний тарбиянинг роли (Илмий-амалий анжуман материаллари). Бухоро-2002 йил.

40. Ахмедова Ш, Салимов Ғ,Миллий кадриятлар ва истиқлол., И. БухДУ 146-148бет Ўзбекистон ва хорижий давлатлар ёшлари ва ўсмирларини ўзбек миллий курашига ўргатишнинг долзарб муаммолари. (Илмий-амалий анжуман материаллари). Бухоро-2006 йил .